

## OYBEKNING PORTRETDAN FOYDALANISH MAHORATI (“Navoiy” romani asosida)

*Normuminov Laziz Yuldash o'g'li*  
*Nizomiy nomidagi TDPU talabasi*

**Annotatsiya.** Bu portret orqali yozuvchi ilm dargohida uchraydigan ilmni qadrlaydigan insonlar bilan birga ilmdan o'z nafsini yo'lida foydalanishni istaydigan ma'nan qashshoq insonlar ham bo'lishini va bu xil odamlardan har vaqt xiyonat va sadoqatsizlikning hidi kelib turishini aytadi.

**Kalit so'zlar:** syujet zalvorligi, personaj, ilm dargohi, tafakkur va xayol, roman, portret.

**Annotation.** Through this portrait, the writer says that along with the people who appreciate the knowledge found in the field of science, there are also the poor people who want to use the science for their own selfishness, and the smell of betrayal and disloyalty always comes from such people.

**Key words:** plot complexity, character, science center, thinking and fantasy, novel, portrait.

**Аннотация.** Этим портретом писатель говорит о том, что наряду с людьми, ценящими знания, найденные в области науки, есть и бедняки, желающие использовать науку в своих корыстных целях, и всегда пахнет предательством и нелояльностью. исходит от таких людей.

**Ключевые слова:** сюжетная сложность, персонаж, научный центр, мышление и фантазия, роман, портрет.

Jahon adabiyotida roman- insonni o'zligib ijtimoiy muhiti va olam muammolari bilan faol munosabatda tasvirlovchi, odamlar qismati orqali jamiyat joriy holatini poetik tadqiq etuvchi sertarmoq syujet, zalvorli mazmunga ega bo'lgan mazmunga ega bo'lgan epik turning murakkab janri sifatida talqin qilinadi.

Tarixiy romanlarda portret yaratishni san'at darajasiga ko'tarish tarixiy davrni yaxshi bilish bilan birga boy tasavvurga ega bo'lish hamda roman o'quvchilarini o'sha davr bilan tanishtirish emas, balki davrning ijtimoiy muhiti, davr kishilarining umumiy muammolari orqali insoniyat tarixida mavjud bo'lgan ezgulik va yovuzlik orasidagi kurashni his etishlari uchun portret berish eng muhim vosita sanaladi

O'zbek romanchiligida tarixiy davrni yoritib berish tarixiy haqiqat va badiiy haqiqatni uyg'unlashtirish keng mushohadali, tasavvuri boy yozuvchilarning qo'lidan kelgan. Aynan shunday yozuvchilardan biri Muso Toshmuhammad o'g'li Oybekdir. Oybekning “Navoiy” romanidagi ba'zi insonlarning portreti orqali yozuvchi aytmoqchi bo'lgan fikrning tirik timsolini ko'rish, hattoki undan asar jarayonida kutiladigan natijani taxmin qilish mumkin bo'ladi.

Portret (fr.portrait- tasvirlamoq )- 1. Personajning so 'z vositasida tasvirlangan tashqi ko'rinishi (jussasi, kiy'imi, yuz-kozi ifodalari, tana holati va

harakatlari, qiliqlari) o'quvchi tasavvurida jonlanarkan, to'laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri.

Portret asosida aniq shaxsning qiyofasini aba-diylashtirish yotadi. Portretning muhim tomoni tasvirning tasvirlanuvchi (model, asli) ga aynan o'xshashligidir. Ijodkor Portret orqali tasvirlanuvchi shaxsning ma'naviy dunyosini, ijtimoiy hayotdagi o'rnini, kasbi, jamiyatdagi mavqegini aks ettiradi va uning shu jihatlari orqali [davri](#) xususiyati, siyosiy iqtisodiy ahvol haqida [ma'lumot](#) bera oladi. Portret xarakteri asar janriga hamda yozuvchining ijodiy metodi va individual uslubi xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Odatda, Portret personaj xarakterining yozuvchi eng muhim deb hisoblagan jihatlari ochib beradi.

Quyida Oybekning "Navoiy" romanidagi ba'zi portretlar keltirildi: Masalan, "Tolibi ilmlarning aksari bugun hovliga chiqishgan. Ular yapaloq g'isht yotqizilgan yo'lkalarda bo'yralar solib, dars tayyorlashadi. Ularning qay biri "Qofiya"da, qay biri, qay biri "Hoshiya"da, qay biri "Shamsiya"da. Mana bunda biri kitobni tizzasiga qoyib kata sallali boshini uzluksiz chayqab, ko'zlarini chirt yungan holda g'ong'illab "Arabiyot"ni yodlaydi. Nariroqda uch mullabacha bir bo'yra ustida o'tirib, mushkul bir masalani bahslashadi. Ulardan biri-sersoqol, rangpar va oriq - o'z mantiqining kuchini ko'rsatishga va "haqiqat mezoni"ni o'zicha ta'rif etishga astoydil tirishar, sheriklarning dalillarini rad etardi. Undan yoshroq, lekin o'jarlikda undan aslo qolishmaydigan sheriklari qichqirib, yangi yangi dalillar, mulohazalarning tilsimli qo'rg'onini bir zumda so'z bilan yasab qoyardilar" keltirilgan tasvirda madrasa toliblarining qizg'in bahslashish jarayoni tasvirlangan bo'lib, undagi toliblarning portretlari orqali ilm oluvchilarning hayot tarzidan bir lavhani ko'rgandek bo'lasiz. Yosh jihatdan eng kattasi- hujra sohibi Aloiddin Mashhadiy bo'lib, chuvak yuzini dag'al qora soqol bosgan, payvasta quyuk qoshli, har vaqt yarim yumuq xira ko'zli, past bo'yli, chamasi qirq yoshidagi kishi edi. Aloiddin Mashhadiy asabiy, jizzaki, sezgir shaxs: arzimagan narsaga kishidan ko'ngli qoladi. U kimdan ranjisa, o'sha soatda bir hajv ila o'z "dushman"ini so'z balchig'iga shunday bulg'aydiki, o'qirkan, undan eng chirkin hid burqib turadi.

Bu portret orqali yozuvchi ilm dargohida uchraydigan ilmni qadrlaydigan insonlar bilan birga imdan o'z nafsini yo'lida foydalanishni istaydigan ma'nan qashshoq insonlar ham bo'lishini va bu xil odamlardan har vaqt xiyonat va sadoqatsizlikning hidi kelib turishini aytadi.

Ikkinchi mullabacha hirotlik o'rta hol oilada mansub Zayniddin, qaddi-qomati nozik, xushmuomala, xushsuhbat, havoyi tabiatli yigirma-yigirma bir yashar yigit edi. U to'rt- besh yildan buyon tehsil ko'rib, ba'zi ilmlarda ancha ilgariylan. Arab va fors tillarini yaxshi egallagan. Lekin havoysi tabiati bo'lishi va hayotda ziynatli, xursandchilikni sevishi orqasida tahsilga uncha qunt qilmaydi.

Ilm dargohida yana bir xil insonlar tahsil oladiki, bu xildagi talabalar har qanday sharoitda hayot zavqini his qiladilar va o'z qobiliyatlaridan har qanday vaziyatda foydalanishga harakat qiladilar.

Uchunchi talaba ikki yil burun Shahrisabzdan tehsil uchun kelgan do'ng peshonali, miqti gavdali, o'tkir, yirik ko'zli o'n sakkiz yashar Sul-tonmurod edi.

Bu yerda hammadan ajralib turgan shaxs- Aloiddin Mashhadiyning mehmoni samarqandlik To'g'onbek edi. U yo'g'on, chorpaxil gavdali, dakkam-duk-kam qizg'ish mo'ylabli; keng, qoramtir yuzining yonoqlari bo'rtgan; qisiq ko'zlari ayyorcha beqaror; kunlar isib ketgan bo'lsa ham, uning engida qo'pol eski po'stin, boshida qunduzi qalin bo'rk...

Ilm dargohining haqiqiy egasi, chin iqtidor sohiblari mavjudki, bu kabi talabalar haqiqiy chin insonlardir, kelajakda ularning nomlari tarixda qoladi.

Kichkina, xarob do'konchada katta, to'garak barkashlarga uyulgan xilma-xil halvolar orasida o'tirgan mayin harakatli, kamtar, ko'zlari sho'x, qirq yoshlar chamasidagi shoir turobiy do'stlarini suyunib qarshi oldi.

Shuningdek, yozuvchi o'z romanida oddiy xalq vakillarini savodxonligi, ularning madaniy dunyosi, nozik didli kishilar ekanligi haqida ham so'z yuritadilar.

Halvopurush obrazi xuddi shunday xalq vakili obrazidir.

Oybek asar qahramonlarini bir bir- ta'riflab kelar ekan, xuddi kitobxonlarni o'sha ijtimoiy muhit bilan birga davr kishilari bilan tanishtirish orqali butun xalqning Alisher Navoiyga bo'lgan muhabbatini aks ettiradi.

Sul-tonmurod dars uchun mudarris mavlono Fasihiddinning hujrasiga kirib, hayratda qotdi. Yap-yangi ko'k shohi to'n kiygan ustod yangi taqyaga sallani bejab oramoqda edi. Uning har vaqt muloyim, ochiq yuzi, oq ko'rkam soqoli, butun savlatdor gavdasi uning shoshilayotganini, quvonchini bildirar edi.

Iqtidorli talaba Sul-tonmurod orqali Navoiy obrazi chiziladi. Navoiyning yuzining tasviri orqali uning buyuk tafakkuri hamda uning ma'naviy qudrati namoyish etiladi. Bu obraz orqali Navoiyning teran fikri, xalqqa bo'lgan samimiy ehtiromi yaqqol ko'rinib turadi.

Shoirning boshida uchli ko'k taqiyaga silliq o'ralgan ko'rkamgina salla. Egnida odmi shohi to'n, ustida qo'ng'ir movut chakmon. Navoiy o'ttizdan oshmagan bo'lsa ham, Yoshi ulug'lardek ko'rinardi. Qomati o'rtadan baland, ingichka, lekin gavdasi pishiq, barmoqlari uzun va nafis, qora vaqisqa soqolli, xushbichim miyiq-lari tekis va silliq, yonoqlari chiqiqroq, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va yengil go'zallashtiruvchi bir

horg'inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchi ifodalanadi.

Husayn Boyqaro obrazi orqali o'sha davr hukmdorining nafaqat davlat boshqarish mas'uliyatini o'z zimmasiga olishdan tashqari, biroz yengil hayotga, hashamatli turmushga moyilligi sezilib turishiga ishora qiladi.

Husayn Boyqaro belidan yuqorisi kengayib brogan qabariq ko'krakli, keng yag'rinli, miqti gavdali edi. Yirik qiyiq, o'tkir qarovchi ko'zdan iroda va ingichka hiyla bilan birga qandaydir beqarorlik, yengil va sho'x tabiatniham ifodalar edi; boshida yirik gavharlar qadal-gan qorako'l qalpoq, egnida yoqasi oltin gullar,

qimmatbaho toshlar rang- barang porlagan qizil abrishim to'n. Enli kamarida oltin qubbachalar, yirik gavharlar.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Oybekning "Navoiy" romanida tasvirlangan har bir portret, har bir obraz o'z o'rnida Navoiy xarakter-xususiyatini, uni davr ijtimoiy hayotida tutgan o'rni haqida mukammal asar sanaladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. Universitetlar va pedagogika institutlari bakalavr ixtisosini oluvchilar uchun darslik. –Toshkent: O'qituvchi, 1999. –B. 197.
2. Millatni uyg'otgan adib. – Toshkent: Universitet, 2005.
3. Yoqubov H. Oybek (adabiy tanqidiy ocherk). – Toshkent: O'zadabiynashr, 1950;
4. Yoqubov H. Oybek lirikasida g'oyaviylik va mahorat. –Toshkent: Fan, 1963;
5. Yoqubov H. Adibning mahorati. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965
6. Qo'shjonov M. Oybek mahorati. – Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1965; Bat L,
7. Quronov, D., Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. Adabiyotshunoslik asoslari.Toshkent. " Akadem nashr".2013 -B.227
8. Oybek. Navoiy "Sharq". Toshkent. 2004.